

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

SAID AHMAD HAYOTI VA IJODIGA BIR NAZAR “QORAKO’Z

MAJNUN” HIKOYASIDA ONAIZOR OBRAZI

Musurmonqulova Muxlisa

O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti

O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi

2-kurs talabasi

Hammualiflar: Kamilova Dilnoza, Usarova Laylo

Annotatsiya: Ushbu maqolada taniqli adibimiz Said Ahmad hayoti va ijodi haqida atroflicha ma’lumotlar beriladi. Shuningdek „Qorako‘z majnun“ hikoyasidagi Saodat aya obrazi tahlilga olingan.

Kalit so‘zlar: hikoya, din, but, sadoqat, badiiy obraz, bolalik, tuzum, ona, beshik, it, hadis, timsol, tasvir.

XX asr o‘zbek adabiyotining zabardast vakili Said Ahmad (Husanxo‘jayev) 1920- yilda Toshkentning Samarqand darvoza mahallasida dunyoga kelgan. Adibning bobosi Dadaxo‘ja Toshkentning boylaridan bo‘lgan. Onasi Zulfiyaxon G‘ulomjon qizi savodli, husnixati chiroyli ayol edi. Dadasi Xusanxo‘ja Dadaxo‘ja o‘g‘li rus tilini mukammal bilardi. U 1938-yilning erta bahorida qamaladi.

Adibning qalbida adabiyotga muhabbat yoshlik paytidayoq paydo bo‘ldi. Adibning uyida har juma kuni adabiy kecha bo‘lib o‘tardi. Unda Abdulla Qodiriy, G‘ulom Zafar, G‘ozi Yunus, G‘ofur G‘ulom, Oybek, Xurshid, Komil Aliev, Tavallo, Nabi G‘ani kabi ijodkorlar adabiyot to‘g‘risida suhbatlashardi. Yosh Said Ahmad ularga choy tashirdi.

Said Ahmad durustgina ta‘lim ololmadi. Qayerga bormasin xalq dushmaning o‘g‘li deb tahqirlashadi . U o‘zini rassomlik, suratlashlik, artistlik sohalarida sinab ko‘rdi. Biroq hech biridan ko‘ngli to‘lmagan adibning ishqiy yozuvchilikka tushdi. Tarjimai holini berkitib gazeta-jurnallarda ishladi. “Tortiq” nomli ilk hikoyalar to‘plami 1940- yilda nashr ettirildi. Shundan so‘ng adibning “Farg‘ona hikoyalari”, “Muhabbat”, “Er yurak” to‘plamlari chop etildi. Bu asarlarning har biri xalqimizning zo‘r qiziqish bilan o‘qiladigan kitobiga aylandi. Said Ahmadning “Kelinlar qo‘zg‘oloni” komediyasi adibni nafaqat o‘zbek xalqiga shuningdek ko‘plab xorijiy mamlakatlarga tanitdi.

Mustaqillik yillarida adibning “ Xondan pista”, “Bir o‘pichning bahosi” hajviy to‘plamlari, “Qorako‘z majnun”, “Kibrikdagi tong” kitoblari, 3 jildlik “Tanlangan asarlar”i yaratildi. “Yo‘qotganlarim va topganlarim” asari Said Ahmadning avtobiografik asari hisoblanadi. 1988-yilda yozilgan “Jimjitlik” romanida sho‘ralar davridagi ijtimoiy hayotning turg‘unlik davri yoritib berilgan.

Said Ahmad “aksilsho‘roviy millatchilar guruhi a‘zosi, zararli g‘oyalar targ‘ibotchisi” sifatida ayblanib qatag‘on davrining ikkinchi to‘lqinida qamoqqa olindi. Adib umring 4 yilini Jezqozg‘on lagerida o‘tkazdi. Shu davr mahsuli sifatida, “lagerlar turkumi” hikoyalari maydonga keldi.

Said Ahmad “Buyuk xizmatlari uchun” va „Do‘stlik” ordenlari, “O‘zbekiston Qahramoni” kabi unvonlar bilan taqdirlandi.

O‘zbek xalq yozuvchisi Said Ahmad 2007-yilda vafot etadi.

Bugun biz adibning “Qorako‘z Majnun” hikoyasiga o‘z e‘tiborimizni qaratamiz. Hikoya sodda va ravon tilda yozilgan, voqealari ham murakkab emas. Adib uni Qur‘oni karimning “Baqara” surasi 217-oyati “Sizlardan qaysi biringiz o‘z dinidan qaytsa va shu fikrligicha o‘lsa, bas, ana o‘shalarning (qilgan savobli) amallari xabata (bekor) bo‘lur, ular do‘zax ahlidandurlar va u yerda mangu qolurlar” hamda Hadisi sharifdan : “Jannatga kiradigan o‘n nafar hayvondan biri bu “Ashobi kahfning vafodor itidir”. (“Al Jome al - Kabr”) bilan boshlanadi. Hikoyada adib onaizor obrazini Saodat aya timsolida gavdalantiradi. Saodat aya o‘zbekning haqiqiy munis onalaridan biri. Kampir har qanday vaziyatda ham farzandalarini o‘ylaydi, ular uchun qayg‘uradi. Saodat aya doim namozida dunyodan o‘tgan turmush o‘rtog‘i Turobga atab Qur‘on tilovat qiladi, Rossiyaga harbiy xizmatga ketib, necha yillardan beri qaytmagan o‘g‘liga insof berishini, ikki marta turmush qurib, farzandi bo‘lmay qaytib kelgan qiziga baxt so‘raydi.

Saodat ayaning birdan bir ovunchogi Qorako‘z majnun edi. Adib hikoyada itni “kichkinagina, belida belbog‘dek ikkita – biri qora, biri jigarrang chizig‘i bor. Xuddi kimdir ataylab bo‘yab qo‘yganga o‘xshab ko‘rinadi. Tumshug‘i bilan ikki ko‘zi qop-qora. Bir ko‘zining tepasida to‘mtiq qoshi ham bor” deb tasvirlaydi. U kampir bilan tun-u kun birga edi. Hatto Saodat aya kasalxonada yotganida shu itgina qish kunlari qorga bag‘rini berib hovlida bir oy deraza tagida kutib yotadi. O‘z farzandlari esa qo‘ni-qo‘shnilarining qistovi bilan ora-orada xabar oladilar xolos.

Saodat aya o‘g‘li Bo‘rixonni 32 yil davomida intizor kutadi. Shunchalar sog‘inganidan surunkanli 1 oy davomida tushlariga ham kirib chiqadi. Bir safar nevarasi Anvarjon tog‘asidan xabar olish maqsadida yo‘lga chiqadi va daragini topib keladi. Nevarasini gaplarini eshitgan kampir yer yorilmadi-yu, yerga kirib ketmadi. Adib Saodat ayaning bu holatini “errayim kampirning shoxi sindi, ostona hatlamay uyda muqim o‘tirib qoldi” deya ifodalaydi. Bo‘rixon sevgisi tufayli o‘z dinidan, vatanidan hatto ona tilidan ham voz kechadi. Uning uchun ona tili qadim-qadimdayoq qolib ketgan shumer tillar qatori unitilgan edi. Qaytib kelib onasi bag‘riga bosganda begonalariday hech narsani his etmadi. Shunchalik begonlashib ketgan ediki opa-singil, aka ukalarini tanimadi hatto. Mehr berib, ne-ne umidlarda katta qilgan otasini bir bora so‘ramadi ham. Onaning quvonchi dunyolarga sig‘masdi. Necha yillardan beri intizor kutgan bolasi qarshisida ekanligini ko‘rib ko‘zlariga ishonmasdi. Supada yotgan bolasini tomosha qila turib, uni bolaligida aynan shu supada beshikka belaganini, Bo‘rixonni bolaligida do‘mboqqina bola bo‘lganini xotiriga oldi. Shu payt o‘g‘ling choyshabi sirg‘anib yelkasi ochilib qoldi. Bo‘ynidagi zanjirning uchida but yaltiradi. Buni ko‘rgan onaizor ne holga kelganini tasavvur qilib ko‘ring a. Ona uchun bundan katta musibat bormi? Har bir ona kabi Saodat aya farzandini diniga, yurtiga nafi tegsin deb tarbiyalaganmide? Fikrimcha Saodat aya bu holni ko‘rguncha Bo‘rixon harbiy xizmatda yurti uchun qurbon bo‘lgani afzal edi. Kampir zanjir uchidagi butni ko‘rib, seskangancha ayvon tamon yurdi va behush yiqildi. Aynan o‘sha pallada ham Qorako‘z uning yonida edi. U Qumri yotgan uy eshigini timdalab, uyqudan uyg‘otib, uni onasi yoniga boshlab keldi. Qumri keksayib mushdek bo‘lib qolgan onasini dars ko‘tarib uyga olib kirib ketadi. Kampirning qolgan qora sochlari ham farzandi sabab bir kechada oqardi. Saodat aya farzandi ketar chog‘ida xayrlashmadi ham. Bir ona uchun o‘z farzandidan kechish qanchalar qiyin bo‘lmasin u huddi shu yo‘lni tanladi. Har doim namozida eslagan Bo‘rixonni endi eslamay ham qo‘ydi. Uning yoshligidagi kiyimlarini olib chiqib, hovli o‘rtasida yoqdi. Gulxanda o‘g‘ling bolaligi yonarkan onaning qalbidagi muz uni yiglashga qo‘ymadi. Qayerdandir paydo bo‘lgan shu muz parchasi umring so‘ngicha uni tark etmadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, bu hikoyada ona va bola munosabatlari, farzand tarbiyasidagi muhim jihatlar, insonni o'z e'tiqodiga sobit ruhda tarbiyalash kabi g'oyalar aks etadi. Har bir kishi chin mo'min sifatida, to'g'ri yo'lda kamol topishi, shuningdek o'zining milliy va ma'naviy qadriyatlariga sodiq bo'la olishi, vatan, ota-ona oldidagi burch va majburiyatlarini chuqur anglab yetishi lozim, aks holda hikoya qahramoni Bo'rixon kabi achinarli holatga kelib qolishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Said Ahmad. Qorako'z Majnun. Hikoyalar. Toshkent. "O'zbekiston" 2013.
2. ziyouz.com "Said ahmad qorako'z majnun" hikoya
3. Yustitsiya G " Onaning ko'ngli bolada, bolaning ko'ngli... " taqriz-2020
4. Said Ahmad. Yo'qotganlarim va topganlarim. Tanlanlan asarlar. "Sharq" 2000.